

**BITIRUVCHILAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA OLIY TA'LIM
MUASSASASI VA ISH BERUVCHI HAMKORLIGI**

Xasanova Gulchehra Shomurotovna

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi bitiruvchilar bandligini ta'minlashda oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi samarali hamkorlikning ahamiyati, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan bo'lib, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash zarurati asoslab beriladi. Unda oliy ta'lim tizimida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim dasturlarini ish beruvchilar ehtiyojlariga moslashtirish, dual ta'lim elementlarini joriy etish muhimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, amaliyot dasturlari, stajirovkalar, karyera markazlari faoliyati va ish beruvchilar ishtirokida o'quv rejalari ishlab chiqish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tezisdagi bitiruvchilarning ishga joylashishiga to'sqinlik qilayotgan omillar, jumladan, malaka va talablar o'rtasidagi nomuvofiqlik, ish tajribasining yetishmasligi hamda axborot almashinuvidagi kamchiliklar ko'rsatib o'tiladi. Muallif ushbu muammolarni hal etishda oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida barqaror va strategik hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurligini asoslaydi, shuningdek, xorijiy tajriba asosida samarali hamkorlik modellari va ularni milliy sharoitda qo'llash imkoniyatlarini taklif etadi.

Kalit so'zlar: Bitiruvchilar bandligi, oliy ta'lim muassasasi, ish beruvchi, hamkorlik, mehnat bozori, kadrlar tayyorlash, amaliy ko'nikmalar, dual ta'lim, stajirovka, amaliyot dasturlari, karyera markazi, ishga joylashish, raqobatbardoshlik.

Bugungi globallashtirish va iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mehnat bozorining talablari tubdan o'zgarib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Endilikda oliy ta'lim

muassasalari faqat nazariy bilim beruvchi maskan sifatida emas, balki zamonaviy mehnat bozoriga moslashuvchan, amaliy ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlovchi muhim institut sifatida faoliyat yuritishi zarur. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarini bitirayotgan yoshlarning o'z mutaxassisligi bo'yicha ish bilan ta'minlanishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Chunki bitiruvchilarning bandligi nafaqat ularning shaxsiy rivoji va ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi, balki mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyoti uchun ham muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bitiruvchilar bandligini ta'minlashda oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi samarali hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoni bilan mehnat bozori o'rtasidagi uzilishlar ko'plab muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, ko'plab bitiruvchilar o'z mutaxassisligi bo'yicha yetarli darajada amaliy ko'nikmaga ega emasligi sababli ish beruvchilar talablariga to'liq javob bera olmayapti. Natijada, yosh mutaxassislarning ishga joylashish darajasi past bo'lib qolmoqda yoki ular boshqa sohalarda faoliyat yuritishga majbur bo'lmoqda. Bu esa oliy ta'lim tizimining samaradorligi masalasini kun tartibiga olib chiqadi.

Oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkin. Chunki ish beruvchilar mehnat bozorining real talablarini yaxshi biladi va aynan qanday malaka va ko'nikmalarga ega mutaxassislar zarurligini aniq tasavvur qiladi. Shu sababli ularni ta'lim jarayoniga jalb etish, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ularning fikr va takliflarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Bunday yondashuv natijasida talabalarga berilayotgan bilimlar amaliyot bilan uyg'unlashadi va ular o'qish jarayonidayoq kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlana boshlaydi.

Bundan tashqari, talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini bevosita korxonada va tashkilotlarda o'tashi, stajirovka dasturlarida ishtirok etishi ham ularning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda ish beruvchilar nafaqat kuzatuvchi, balki faol ishtirokchi sifatida maydonga chiqadi. Natijada, talaba o'z bilimini real ish sharoitida sinab ko'rish imkoniyatiga ega

bo'ladi, ish beruvchi esa kelajakdagi xodimni oldindan baholash va tanlash imkoniga ega bo'ladi. Bu esa ikki tomon uchun ham manfaatli bo'lgan samarali tizimni shakllantiradi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida karyera markazlari faoliyatini rivojlantirish, bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarini tashkil etish, ish beruvchilar bilan muntazam uchrashuvlar o'tkazish ham bitiruvchilar bandligini oshirishga xizmat qiladi. Bu kabi mexanizmlar orqali talabalar mehnat bozori haqida kengroq ma'lumotga ega bo'ladi, o'z kasbiy yo'nalishini aniqlab oladi va ish izlash jarayoniga tayyorlanadi. Shu bilan birga, ish beruvchilar ham oliy ta'lim muassasalari bilan bevosita aloqaga kirishib, o'zlariga mos kadrlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xorijiy tajriba ham shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda oliy ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya yuqori darajada yo'lga qo'yilgan. Masalan, dual ta'lim tizimi orqali talabalar o'qish jarayonining muayyan qismini bevosita ishlab chiqarishda o'tkazadi. Bu esa ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday tajribalarni milliy ta'lim tizimiga joriy etish orqali ham bitiruvchilar bandligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining rivojlanishi ham oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Turli onlayn platformalar, ish qidirish saytlarining kengayishi, raqamli karyera xizmatlari orqali bitiruvchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi aloqa yanada tezlashmoqda va samaradorligi ortmoqda. Bu esa mehnat bozorining shaffofligini ta'minlashga va ishga joylashish jarayonini yengillashtirishga xizmat qilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki mehnat bozori tobora murakkablashib borayotgan bir sharoitda malakali, raqobatbardosh va amaliy ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Mazkur jarayonda oliy ta'lim tizimi va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy aloqalarni mustahkamlash katta ahamiyat kasb etadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu ikki tizim o'rtasidagi hamkorlik har doim ham samarali darajada

yo'lga qo'yilmagan. Natijada bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi past bo'lishi, ularning olgan bilimlari bilan amaliy faoliyat o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelishi kuzatilmoqda.

Hamkorlikni ta'minlash jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud. Avvalo, oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarining mehnat bozori talablariga to'liq mos kelmasligi asosiy muammolardan biridir. Ko'pincha ta'lim dasturlari nazariy bilimlarga ko'proq urg'u berib, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yetarli darajada e'tibor qaratmaydi. Bu esa bitiruvchilarning ish faoliyatiga tez moslashishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, ish beruvchilar tomonidan oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikka bo'lgan qiziqishning yetarli darajada shakllanmaganligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ba'zi tashkilotlar ta'lim jarayonida ishtirok etishni ortiqcha yuk deb hisoblaydi yoki buning uzoq muddatli foydasini yetarlicha anglab yetmaydi.

Bundan tashqari, amaliyot va stajirovka tizimining yetarlicha samarali tashkil etilmaganligi ham muammolar qatoriga kiradi. Ko'plab talabalar amaliyot davrida faqat rasmiy tarzda ishtirok etib, real ish jarayoniga jalb etilmaydi. Bu esa ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Axborot almashinuvidagi kamchiliklar ham hamkorlik samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida talab va taklif bo'yicha to'liq va aniq ma'lumotlar yetarli darajada almashilmaydi.

Moliyaviy va tashkiliy muammolar ham ushbu jarayonga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, ayrim hollarda amaliyot o'tash uchun zarur infratuzilma yoki moddiy-texnik baza yetishmaydi. Bundan tashqari, hamkorlikni tartibga soluvchi normativ-huquqiy mexanizmlarning yetarlicha mukammal emasligi ham tizim samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli ushbu muammolarni kompleks tarzda hal etish, hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashdagi asosiy muammolar hamda ularning amaliy yechimlari quyidagi jadvalda keltirib o'tdik (1-jadval):

1-jadval

Oliy ta'lim muassasasi va ish beruvchi hamkorligini ta'minlashdagi muammolar va ularning yechimlari¹

Muammolar	Amaldagi holati	Yechimlar
O'quv dasturlarining mos kelmasligi	Ta'lim dasturlari mehnat bozori talablariga to'liq javob bermaydi	Ish beruvchilar ishtirokida o'quv dasturlarini yangilash
Amaliy ko'nikmalar yetishmasligi	Talabalar nazariy bilimga ega, ammo amaliy tajribasi kam	Dual ta'lim tizimini joriy etish
Ish beruvchilar faolligining pastligi	Korxonalar ta'lim jarayonida faol ishtirok etmaydi	Hamkorlikni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni yaratish
Amaliyot tizimining sustligi	Amaliyot rasmiy tusda o'tadi, real ish tajribasi berilmaydi	Amaliyotni nazorat qilish va sifatini oshirish
Axborot almashinuvi yetishmasligi	Talab va taklif bo'yicha ma'lumotlar yetarli emas	Yagona axborot platformalarini yaratish
Karyera xizmatlari sustligi	Talabalar ish topishda yetarli yo'naltirilmaydi	Karyera markazlarini rivojlantirish
Moliyaviy muammolar	Amaliyot va loyihalar uchun mablag' yetishmaydi	Davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish
Normativ-huquqiy bazaning zaifligi	Hamkorlikni tartibga soluvchi hujjatlar yetarli emas	Huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish
Talabalar motivatsiyasining pastligi	Talabalar amaliyotga jiddiy yondashmaydi	Rag'batlantirish tizimini joriy etish
Monitoring tizimining yo'qligi	Bitiruvchilar bandligi nazorat qilinmaydi	Bitiruvchilar monitoring tizimini yaratish

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda mavjud muammolar tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Eng asosiy muammolardan biri ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi uzilish hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jadvalda ko'rsatilganidek, ushbu muammolarni hal etish uchun, avvalo, o'quv dasturlarini

¹ O'rganilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan
www.tadqiqotlar.uz

takomillashtirish va ularni ish beruvchilar talablari asosida qayta ko'rib chiqish zarur.

Shuningdek, amaliyot va stajirovka tizimini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan amaliy faoliyat orqali talabalar o'z bilimlarini mustahkamlaydi va real ish muhitiga moslashadi. Jadvalda taklif etilgan dual ta'lim tizimi bu borada samarali yechimlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ish beruvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini oshirish orqali ham hamkorlik samaradorligini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yagona axborot platformalarini yaratish orqali talabalar, oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash mumkin. Bu esa ishga joylashish jarayonini tezlashtiradi va shaffoflikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, karyera markazlari faoliyatini rivojlantirish orqali talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish mumkin.

Yuqorida ko'rib chiqilgan muammolar va ularning yechimlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularni kompleks tarzda amalga oshirish orqali oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, bitiruvchilarning bandligini oshirish, ularning raqobatbardoshligini kuchaytirish va mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, bitiruvchilar bandligini ta'minlash masalasi oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi uzviy hamkorlik darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, ushbu hamkorlikni kuchaytirish bugungi kunda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mehnat bozori talablarining tez o'zgarib borishi oliy ta'lim tizimidan moslashuvchanlikni, zamonaviy yondashuvlarni va amaliy yo'naltirilgan ta'limni talab etmoqda. Shu sababli ta'lim jarayoniga ish beruvchilarni keng jalb etish, o'quv dasturlarini ularning ehtiyojlari asosida muntazam yangilab borish zarur. Talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshirish maqsadida ishlab chiqarish amaliyoti va stajirovkalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, ularni real ish jarayoniga maksimal darajada integratsiya

qilish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida karyera markazlari faoliyatini takomillashtirish, bitiruvchilarni ishga joylashtirish bo'yicha tizimli yondashuvni shakllantirish lozim. Ish beruvchilar uchun hamkorlikni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish, jumladan, soliq imtiyozlari yoki boshqa iqtisodiy rag'batlar berish orqali ularning ta'lim jarayonidagi ishtirokini faollashtirish mumkin. Axborot almashinuvi tizimini rivojlantirish, yagona raqamli platformalarni yaratish orqali talabalar, oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash ham muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, bitiruvchilar bandligini doimiy monitoring qilish tizimini joriy etish orqali ta'lim sifatini baholash va uni takomillashtirish imkoniyati kengayadi. Umuman olganda, oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali nafaqat bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishi yaxshilanadi, balki iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-76-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-sonli Qarori
3. Turatosheva S.R., Islomov O.I. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va baholash (muammolar va yechimlar) // "Modern Trends of Teaching in the Context of Innovative and Digital Technologies in Higher Education: Prospects, Problems and Solutions" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2024-yil 29-noyabr.
4. Болотов В.А. Основные подходы к построению общероссийской системы оценки качества образования // Наука, высшее образование и развитие современного мира: сб. науч. ст. Архангельск. 2007. – С. 6-11
5. Shoyusupova N.T., Ataniyazova M.B. Kadrlar menejmenti. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2016. – 246 bet.
6. Raxmanov R.A. Oliy ta'limda kadrlar tayyorlash raqobatbardoshligini oshirishning ayrim dolzarb masalalari // "Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences" ilmiy jurnali, 2-jild, 10-son, 2022-yil.
7. Kenjaboyev A.E., Karimova B.X. Pedagogik Menejment Asoslari. "IRFON-PRINT" nashriyoti, 2023. – 204 bet.
8. Raxmanova G.A. Rahbar kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi: xalqaro tajriba, milliy tizimimizdagi amaliyot, hozirgi kundagi natijalar. "Application of Artificial Intelligence Technologies in the Public Civil Service" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2024-yil 21-noyabr, 141-146-betlar.